O'zbekistonning zamonaviy korxona va tashkilotlarda boshqaruv masalalari	756
Ahtamova Mohigul Erkinovna	
Davlat tashkilotlarida ichki audit tuzilmalarini tashkil etishni rivojlantirish	761
Nasimov Fazliddin Sirojevich	
Yashil moliyalashtirishda sun'iy intellekt texnologiyalarining roli: imkoniyatlar va xavflar tahlili	765
Isoqulova Munisxon Abdurasul qizi	
Критерии экологичности бренда: как измерить «зеленый» имидж?	769
Носирова Чарос	
Qishloq xo'jaligini innovatsion texnologiyalar asosida boshqarish	775
Mamadiyarov Dilshad Uralovich, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
Investitsion muhit tushunchasining makroiqtisodiy tahlili va nazariy model.....	780
Saidov Rasul Boltabayevich, Jo'rabekova Xumora Muzaffar qizi	
«O'ztransgaz» AJ faoliyatini 2024–2027 yillarga prognozlashtirishda ekonometrik modellar asosida tahlil	784
Sindorov Davlatbek Abdumajid o'g'li, Murodov Sardor Nurali o'g'li	
Favqulodda vaziyatlarning oldini olishga qaratilgan tibbiy profilaktik ishlar.....	791
Mahmudov Otamurod Hoshimovich, Murtazova Sh.N.	
Xizmat ko'rsatish sohasida elektron tijoratni rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar tahlili.....	795
Maxmudov Lazizbek Ubaydullo o'g'li	
O'zbekiston chakana savdosi tizimi va uning rivojlanishi.....	806
Yaqubov Azizbek G'anibekovich	
Milliy iqtisodiyotni tartibga solishda davlatning o'rni va maqsadi	812
Amonov Mehriddin Oromiddinovich	
Investitsion faoliyatni amalga oshirishning xorij tajribasi va mamlakatimizda foydalanish istiqbollari.....	816
O'tamurodova Surayyo Shokirjon qizi	
Uy-joy fondini boshqarish samaradorligini oshirishda zamonaviy sifat menejmenti tizimining o'rni.....	822
Asadullina Nailya Ramilevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	



Значение искусственного интеллекта в области педагогики на основе мультимедийных приложений	829
Бегалиев Файзали Умаралиевич	
Sog'lomlashtirish turizmida ekologik va ijtimoiy ta'sirlarning sintezi	832
Naimov Saidjon Yusup o'g'li	
Kasbiy ta'lim tashkilotlarida o'quvchilarni raqamli kompetensiyasini baholashning metodologik asoslari	835
Maxkamova Zuxra Tursunpulotovna	
Обзор по теме Современные системы управлением возбуждение синхронных машин и перспективы их развития (Формирования законов управления)	841
Алиев Абдор Мураткулович	
O'zbekistonda turizm va servis sohasida davalt- xususiy sheriklik mexanizmidan foydalanish istiqbollari	846
Mamayusupova Dilovarxon Begmatovna	
Tijorat banklarida operatsion risklarini baholash va boshqarish tizimini tashkil qilish	850
Jaxongir Rabbimov	
Tomorqa xo'jaliklari faoliyatini tahlil qilishda statistik modellar va metodlardan foydalanish yo'nalishlari	855
Turobov Sherzod Alisherovich	



TOMORQA XO'JALIKLARI FAOLIYATINI TAHLIL QILISHDA STATISTIK MODELLAR VA METODLARDAN FOYDALANISH YO'NALISHLARI



Turobov Sherzod Alisherovich

Qarshi davlat texnika universiteti dotsenti, i.f.f.d. (PhD)

E-mail: sh.turobov@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada tomorqa xo'jaliklari faoliyatining statistik tahlilini zamonaviy ilmiy-uslubiy yondashuvlar asosida amalga oshirish zarurati asoslab berilgan. O'zbekiston Respublikasi sharoitida tomorqa xo'jaliklarining iqtisodiy salohiyatini baholashda qo'llanilishi mumkin bo'lgan statistik modellar tahlil qilinib, mavjud holatga mos metodologik yechimlar taklif etilgan. Qashqadaryo viloyati misolida statistik ko'rsatkichlar asosida tomorqa xo'jaliklari samaradorligining dinamik o'zgarishlari tahlil qilingan hamda resurslardan foydalanish darajasi va ishlab chiqarish imkoniyatlarini oshirish bo'yicha ilmiy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: tomorqa xo'jaligi, model, metod, statistik tahlil, miqdor, guruhlash, hisob, ko'rsatkich, daromad, shaxsiy tomorqa.

Abstract: This article substantiates the necessity of conducting a statistical analysis of subsidiary farm activities based on modern scientific and methodological approaches. Statistical models applicable to assessing the economic potential of subsidiary farms in the context of the Republic of Uzbekistan are analyzed, and methodological solutions relevant to the current situation are proposed. Using the case of the Kashkadarya region, the study analyzes the dynamic changes in the efficiency of subsidiary farms based on statistical indicators and develops scientific recommendations aimed at improving resource utilization and enhancing production capacity.

Key words: subsidiary farm, model, method, statistical analysis, quantity, classification, accounting, indicator, income, personal subsidiary farm.

Аннотация: В данной статье обоснована необходимость проведения статистического анализа деятельности подсобных хозяйств на основе современных научно-методологических подходов. Проанализированы статистические модели, которые могут быть применены для оценки экономического потенциала подсобных хозяйств в условиях Республики Узбекистан, и предложены методологические решения, соответствующие текущей ситуации. На примере Кашкадарьинской области проведён анализ динамики изменения эффективности подсобных хозяйств на основе статистических показателей, а также разработаны научные рекомендации по повышению уровня использования ресурсов и расширению производственных возможностей.

Ключевые слова: подсобное хозяйство, модель, метод, статистический анализ, количество, группировка, учет, показатель, доход, личное подсобное хозяйство.



KIRISH

Dunyo miqyosida ijtimoiy-iqtisodiy hayotning globallasuvi natijasida mamlakatlar iqtisodiyotida qishloq xo'jaligining ahamiyati ortib bormoqda. Ayniqsa, rivojlanayotgan davlatlar sharoitida qishloq xo'jaligi nafaqat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda, balki iqtisodiy barqarorlik, ijtimoiy taraqqiyot va ekologik muvozanatni saqlashda ham muhim rol o'ynamoqda. Qishloq xo'jaligining iqtisodiyotdagi o'rni uning global iqtisodiy zanjirda asosiy tarmoq sifatida faol ishtirok etishi, shuningdek barcha ishlab chiqarish yo'nalishlari, ayniqsa, sanoat va xizmatlar sektorining rivojlanishiga turtki bo'lishi bilan belgilanadi.

Hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlar tajribasida qishloq xo'jaligi tarmog'ining barqarorligini ta'minlashda tomorqa xo'jaliklarining roli tobora ortib bormoqda. Tomorqa xo'jaligi – qishloq hududlarida istiqomat qiluvchi aholining asosiy iqtisodiy faoliyat shakli bo'lib, u oziq-ovqat ta'minoti, daromad manbai va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muhim omil sifatida xizmat qilmoqda.

Mamlakatimizda ham tomorqa xo'jaliklari faoliyatini samarali tashkil etishga bo'lgan e'tibor tobora kuchaymoqda. Jumladan, "Tomorqa xo'jaligi to'g'risida"gi Qonun [1], O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Fermar, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, qishloq xo'jaligi ekin maydonlaridan samarali foydalanish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni [2], shuningdek, "Aholi tomorqalaridan foydalanish samaradorligini oshirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi [3] va "Fermar, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari faoliyatini yanada rivojlantirishning tashkiliy chora-tadbirlari to'g'risida"gi [4] qarorlar hamda boshqa tegishli normativ-huquqiy hujjatlar mazkur sohada davlat siyosatining ustuvorligini ifodalaydi.

Har qancha huquqiy asoslar mavjud bo'lmasin, tomorqa xo'jaliklari faoliyatini statistik tahlil qilish, asosan, tanlanma kuzatuv natijalari asosida amalga oshirilmoqda. Xususan, tomorqalardan foydalanish darajasi, ishlab chiqarish imkoniyatlari, tomorqachilik bilan band bo'lgan shaxslar soni, ishlab chiqarish hajmlari, tomorqa yer egalari daromadlari, resurslardan foydalanish samaradorligi kabi ko'rsatkichlar har bir tomorqa xo'jaligi, mahalla fuqarolar yig'ini, qishloq va tumanlar miqyosida tizimli ravishda hisoblanmaydi. Natijada, mavjud statistik ma'lumotlar faqat ayrim hududlar va kichik guruhlar asosida shakllanadi, bu esa ularni umumlashtirish va keng ko'lamda taqqoslash imkoniyatlarini cheklaydi.

Hozirgi kunda hisob ishlari, asosan, viloyatlarda faoliyat yuritayotgan "Fermar, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi" tomonidan yuritiladi. Biroq, kengash tomonidan shakllantirilgan ma'lumotlar jamlanma ko'rinishda bo'lgani uchun, ushbu ma'lumotlarga statistik metodlar orqali ishlov berish va ularni statistik modellashtirish imkoniyatlari cheklangan.

Tomorqachilikda statistik metodlarning qo'llanilishi va zamonaviy statistik modellarni ishlab chiqish ushbu xo'jaliklarning murakkab tizimini har tomonlama yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu metodlar nafaqat mavjud holatni aniqlash va tahlil qilish, balki kelajakdagi rivojlanish tendensiyalarini prognoz qilish imkonini ham beradi. Shu bois, tomorqa xo'jaliklarining statistik tahlili va modellashtirilishi qishloq xo'jaligi sohasida davlat siyosatini shakllantirish, resurslardan foydalanishni boshqarish hamda barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun zarur ilmiy asos bo'lib xizmat qilishi lozim.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tomorqa xo'jaliklarining hisobini yuritish – shaxsiy tomorqa yer uchastkalaridan foydalanib, tomorqa xo'jaligini tashkil etayotgan shaxslar tomonidan ixtiyoriy ravishda taqdim etiladigan ma'lumotlar asosida amalga oshiriladi. Ushbu jarayon fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan Tomorqa xo'jaliklarini hisobga olish reyestrini shakllantirish orqali olib boriladi [1].

Tomorqa xo'jaligining kelib chiqishi, ushbu xo'jalik faoliyatini tashkil etish, uni statistik jihatdan o'rganish, funksiyalari hamda iqtisodiyotning faol subyekti sifatida samarali boshqarish masalalari ko'plab xorijiy olimlar tomonidan chuqur o'rganilgan. Xususan, N.I. Boychuk, Ye.S. Komeyeva, M.A. Axmedova, A.N. Romanov, G.I. Shmelev, V.V. Radayev va V.V. Shixovetslarning ilmiy izlanishlarida ushbu masalalarning nazariy asoslari yoritilgan.

Tomorqa xo'jaliklarining daromad salohiyati va unga ta'sir qiluvchi omillar borasida Sh.T. Hasanov va Sh.A. Muratovlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda tomorqachilikda daromad miqdoriga quyidagi omillar sezilarli ta'sir ko'rsatishi aniqlangan: innovatsiyalardan foydalanish darajasi, yer egasining asosiy ish faoliyati turi, ekin maydoni hajmi, jinsi, yoshi hamda oila a'zolari soni. Ushbu bog'liqliklar matematik modellar orqali asoslab berilgan [5].

Tadqiqotchilar B.X. Mamatqulov va B.Q. Utanovlarning fikriga ko'ra, hozirgi kunda qishloq xo'jaligi statistikasi oldida turgan eng muhim vazifa – qishloq xo'jaligining rivojlanish holatini ifodalovchi ma'lumotlarni aniqlik bilan hisoblash va ularni tahlil qilish metodikasini takomillashtirishdan iboratdir [6].



Rossiyalik statist O.V. Guseva o'z tadqiqotlarida tomorqa xo'jaliklari statistikasi aniqligi va jozibadorligini oshirish maqsadida zamonaviy raqamli texnologiyalardan, jumladan, planshet qurilmalaridan foydalanish maqsadga muvofiqligini ta'kidlaydi [7].

S.W. Warren esa tomorqa xo'jaligini boshqarishdagi muammolarni statistik tahlil qilishdan ko'zlangan asosiy maqsad – xo'jalik egalariga daromadni oshirishga xizmat qiluvchi foydali axborotni aniqlashdan iboratligini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, bu yondashuv qishloq xo'jaligi sohasi mohiyatini chuqurroq anglashga xizmat qiladi. Shu sababli, har qanday tadqiqot metodikasini muhokama qilishda ushbu maqsad doimo yodda tutilishi zarur [8].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada mavzuga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar, statistik axborotnomalar hamda yetakchi olimlarning ilmiy tadqiqot ishlari tahlil qilinib, olingan natijalar ilmiy jihatdan umumlashtirildi. Tadqiqot davomida kuzatish, guruhlash, monografik tahlil, taqqoslash, o'rtacha miqdorlarni aniqlash hamda tizimli yondashuv kabi zamonaviy ilmiy-uslubiy metodlardan keng foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasida tomorqa xo'jaliklari aholining asosiy daromad manbalaridan biri sifatida iqtisodiyotda muhim o'rin egallaydi. Aynan tomorqa xo'jaliklari orqali oziq-ovqat xavfsizligi, bandlik darajasi hamda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash imkoniyati yaratiladi. Bugungi global o'zgarishlar sharoitida ushbu sohani ilmiy asosda boshqarish va uni strategik yo'nalishlarda rivojlantirish zarurati ortib bormoqda. Bu borada statistik tahlil ajralmas vosita sifatida maydonga chiqmoqda.

Tomorqa xo'jaliklari faoliyatini samarali baholash va rejalashtirishda statistik yondashuvlar quyidagi asosiy yo'nalishlarni qamrab oladi:

- ekin yetishtirish hajmi va xilma-xilligini o'rganish;
- chorvachilik ko'rsatkichlari va ularning intensivligini baholash;
- yer resurslaridan foydalanish samaradorligini aniqlash;
- qo'shimcha daromad manbalarini baholash (issiqxona, asalarichilik, parrandachilik va boshqalar).

Shu bilan birga, tomorqadan yillik hosil olish darajasi, "bir kontur – bir mahsulot" va "daladan dasturxongacha" kabi zamonaviy ko'rsatkichlarni aniqlash va tahlil qilish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Ushbu tahlil jarayonlari, avvalo, eksperimental va amaliy kuzatuvlar asosida to'plangan ma'lumotlarni guruhlash, tizimli tartibga solish, chuqur statistik tahlil qilish hamda mantiqan asoslangan talqin etishni o'z ichiga oladi. Ayniqsa, miqdoriy metodlar (regressiya, dispersiya, korrelyatsiya) bilan bir qatorda sifatli metodlar (ekspert baholash, klasterlash, kontent tahlil)ni qo'llash orqali real vaziyatni chuqur anglash va aniq qarorlar qabul qilish imkoniyati yuzaga keladi.

Statistik metodni tanlash — bu oddiy texnik bosqich emas, balki butun ilmiy izlanish natijadorligini belgilovchi strategik qarordir. Metodologik yondashuvlar har doim tadqiqotning asosiy maqsadlari va gipotezalari bilan uyg'unlikda tanlanmogi lozim. Bu esa tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligi, ishonchiligi va amaliy ahamiyatga egaligini ta'minlaydi.

O'zbekiston sharoitida tomorqa xo'jaliklari faoliyati an'anaviy tajriba va zamonaviy yondashuvlar kesishmasida shakllanmoqda. Shu bois statistik tahlil bu sohada rivojlanish katalizatori sifatida namoyon bo'lmoqda. U ishlab chiqarish resurslaridan oqilona foydalanishni, rentabellikni oshirishni, iqlimiy, hududiy va demografik omillarni inobatga olgan holda qaror qabul qilishni hamda eng muhimi — mahalliy qishloq xo'jaligi siyosatini ilmiy asoslashni ta'minlaydi.

Tadqiqot doirasida Qashqadaryo viloyati misolida tomorqa xo'jaliklari ko'rsatkichlari statistik tahlil qilindi. Olingan ma'lumotlar jamlanma shaklda bo'lganligi sababli, ular an'anaviy statistik metodlar — guruhlash, taqqoslash, o'rtacha miqdorlarni aniqlash va tendensiyalarni baholash orqali tahlil qilindi. Ushbu yondashuv mavjud resurslardan foydalanish samaradorligini baholash va asosiy rivojlanish yo'nalishlarini aniqlash imkonini berdi.

Quyida keltirilgan jadval ma'lumotlarini tahlil qilganimizda, barcha asosiy ko'rsatkichlarda ijobiy o'sish tendensiyasi kuzatiladi. Jumladan, tomorqa xo'jaliklarining umumiy daromadlari 2020–2024-yillar oralig'ida 6 769 mlrd so'mga oshgan bo'lsa, xarajatlar 1 982 mlrd so'mga ortgan. Daromadlar qariyb uch baravardan ko'proqqa oshgani holda, bu o'sish resurslardan foydalanish samaradorligi, mahsulot turlari va bozordagi narxlar bilan chambarchas bog'liq.

2024-yilda bitta tomorqa xo'jaligiga to'g'ri keladigan o'rtacha foyda (yoki zarar) 11 378 ming so'mni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich tashqi ko'rinishda ijobiy bo'lib ko'rinsa-da, mamlakatdagi inflyatsion kutilmalar va hozirgi iqtisodiy shart-sharoitlar bilan solishtirilganda, bu daraja qoniqarli emas. Shunga qaramay, mavjud resurs va imkoniyatlardan oqilona foydalanish orqali bu ko'rsatkichni bir necha barobarga oshirish mumkin.



1-jadval. Qashqadaryo viloyati tomorqa xo'jaligi ko'rsatkichlari (2020–2024-yillar)

Ko'rsatkichlar	Yillar					2024 yilda 2020 yilga nisbatan o'zgarish	
	2020	2021	2022	2023	2024	(+;-)	%
Tomorqa xo'jaliklari soni	462606	611459	611459	611459	611459	148853	132
Daromadlar (mlrd so'm)	3100	4012	4799	6082	9869	6769	318
Xarajatlar (mlrd so'm)	930	1204	1440	1825	2912	1982	313
Ekin maydoni (ga)	55963	65945	65945	65945	65945	9982	118
Foyda yoki zarar (mlrd so'm))	2170	2808	3359	4257	6957	4787	321
O'rtacha foyda yoki zarar (ming so'm)	4691	4592	5493	6962	11378	6687	243

O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligida islohotlarning izchil amalga oshirilishi natijasida boshqaruvning zamonaviy usullarini qo'llash, fermerlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, klaster tizimini keng joriy etish bilan bir qatorda, tomorqa xo'jaliklarini moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash masalasi ham oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bilan chambarchas bog'liq hisoblanadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda mavjud bo'lgan 4,9 millionta tomorqa xo'jaligining 766,8 mingtasi yoki 15,4 foizi shaharlarda joylashgan bo'lib, ular 48 ming gektar (ya'ni 6,5 foiz) yer resursiga ega. Mazkur maydonlarning 15,9 ming gektari (33,1 foiz) ekin yerlari, 13,2 ming gektari (27,4 foiz) ko'p yillik daraxtzorlar, 18,9 ming gektari esa (39,5 foiz) imoratlar bilan band bo'lgan yerlardan iboratdir [9].

O'zbekiston Respublikasida amal qilayotgan qonunchilikka ko'ra, tomorqa xo'jaliklarini hisobga olish reyestrda quyidagi ma'lumotlar aks ettirilishi belgilangan:

shaxsiy tomorqa yer uchastkasi egasining, shuningdek, u bilan birga yashovchi yoki tomorqa xo'jaligini yuritishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarning familiyasi, ismi, otasining ismi va tug'ilgan sanasi;

shaxsiy tomorqa yer uchastkasining don ekinlari, mevali va manzarali daraxtlar ekilgan, shuningdek, boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiriladigan (qayta ishlanadigan) umumiy maydoni;

qishloq xo'jaligi hayvonlari, asalarilar, parrandalar va ipak qurti qutillarining soni;

qishloq xo'jaligi texnikalari, uskunalari va transport vositalari soni haqidagi axborot [1].

Hozirda mahalla fuqarolar yig'inlarida yuritilayotgan "Ombor daftari"da tomorqa xo'jaliklarining umumiy ko'rsatkichlari qayd etilgan bo'lsa-da, bu ma'lumotlar zamonaviy statistik tahlil metodlarida qo'llanish uchun yetarli emas. Boshqa davlatlar tajribasida keng qo'llanilayotgan deskriptiv tahlil, korrelatsion va regressiv tahlil, klasterlash va segmentatsiya, trend tahlili va dinamik qatorlar tahlili, shuningdek vizual tahlil metodlari orqali tomorqa xo'jaliklari faoliyatini samarali tashkil etish mumkin.

Mazkur yo'nalishda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Aholi tomorqalari va dehqon xo'jaliklari yer maydonlaridan samarali foydalanishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, 2025-yil 1-iyungacha tomorqa xo'jaliklari to'liq xatlovdan o'tkazilishi, ularning alohida hisobini yuritish hamda barcha ma'lumotlarni "Online mahalla" platformasiga joylashtirish belgilangan [10].

E'tiborli jihati shundaki, mamlakatimizda tomorqa xo'jaliklari statistikasi yuritilishi orqali ularning faoliyatini tartibga solish va rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan islohotlar soni tobora ortib bormoqda. Ushbu islohotlar sohaning barqarorligini, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashdagi ulushini oshirish hamda mahalliy iqtisodiyotni mustahkamlashga xizmat qiladi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Qishloq xo'jaligi tizimida tomorqa xo'jaliklari muhim iqtisodiy-ijtimoiy vazifalarni bajarib, oziq-ovqat xavfsizligi, aholining bandligi va daromad manbalarini ta'minlashda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Biroq ushbu sohada rasmiy statistik ma'lumotlarning yetarli darajada tizimlashtirilmaganligi, ularning sifati va qamrovi pastligi ilmiy tahlillar hamda strategik rejalashtirish imkoniyatlarini sezilarli darajada cheklab qo'ymoqda.

Qashqadaryo viloyati misolida olib borilgan statistik tahlil natijalari tomorqa xo'jaliklarining soni, daromadlari va ishlab chiqarish hajmlarida o'sish kuzatilganini ko'rsatmoqda. Biroq inflyatsion omillar, ishlab chiqarish resurslarining to'liq safarbar qilinmaganligi hamda mavjud axborot bazasining zamonaviy statistik modellar bilan ishlashga mos emasligi, mazkur o'sishning barqarorligini ta'minlashda muayyan to'siqlarga sabab bo'lmoqda.

Shundan kelib chiqib, statistik tahlil faqatgina mavjud holatni tavsiflash emas, balki rivojlanish istiqbollarini ilmiy asosda bashorat qilishda ham muhim vosita sifatida tobora ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa tomorqa xo'jaliklari faoliyatini chuqur ilmiy tadqiq etish, ilg'or statistik metodlarni keng qo'llash va axborot tizimlarini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 1-apreldagi "Tomorqa xo'jaligi to'g'risida"gi O'RQ–681-son Qonuni. <https://lex.uz/ru/docs/-5351489>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 9-oktabrdagi "Fermar, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, qishloq xo'jaligi ekin maydonlaridan samarali foydalanish tizimini tubdan takomillashtirish chora–tadbirlari to'g'risida"gi PF–5199-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/-3371644?ON-DATE=10.10.2017>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-iyundagi "Aholi tomorqalaridan foydalanish samaradorligini oshirishning qo'shimcha chora–tadbirlari to'g'risida"gi PQ–4767-son Qarori. <https://lex.uz/docs/-4877625?ON-DATE=10.06.2022&action=compare>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 10-oktabrdagi "Fermar, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari faoliyatini yanada rivojlantirishning tashkiliy chora–tadbirlari to'g'risida"gi PQ–3318-son Qarori.
5. Hasanov, Sh., & Muratov, Sh. (2023). Tomorqa xo'jaligi faoliyatidan keladigan daromadga innovatsiyalar ta'sirini iqtisodiy baholash. *The Innovation Economy*, 1(01), 132–144.
6. Mamatqulov, B. X., & Utanov, B. Q. (2020). Qishloq xo'jaligi statistikasi. Darslik. – Toshkent: Iqtisodiyot, 235 bet.
7. Гусева, О. В. (2018). Сельскохозяйственные переписи: исторический аспект. Роль государственной статистики в развитии современного общества: Материалы Международной научно-практической конференции, Иваново, 17–18 мая 2018 г. – Иваново: Ивановский гос. ун-т, Ч. 2, 232 с. ISBN 978–5–7807–1268–8.
8. Warren, S. W. (1936). Statistical Analysis in Farm Management Research. *Journal of Farm Economics*, 18(1), 169–179. <https://doi.org/10.2307/1231321>
9. Aholi tomorqa yerlarida autsorsing xizmatini ko'rsatish. Makroiqtisodiy va Hududiy Tadqiqotlar Instituti tahliliy ma'lumotlari. 2024-yil, aprel, 12 bet.
10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 28-martdagi "Aholi tomorqalari va dehqon xo'jaliklari yer maydonlaridan samarali foydalanishning qo'shimcha chora–tadbirlari to'g'risida"gi 191-son Qarori. <https://lex.uz/uz/docs/7507790>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>